



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Abduxolikova Nasiba Alijonovna — Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti, DSc.

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida mediasavodxonlik va axborot kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli axborot oqimining jadallashuvi sharoitida talabalarni axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash, yolg'on va manipulyativ kontentni farqlashga o'rgatish muhim vazifa sifatida asoslab beriladi. Tadqiqotda mediasavodxonlik va axborot kompetensiyalarining mazmuni, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda raqamli madaniyatni shakllantirishning ta'lim sifati va ijtimoiy faollikka ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, axborot kompetensiyasi, oliy ta'lim, raqamli madaniyat, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Абдухоликова Насиба Алижоновна — доцент Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата, доктор наук (DSc).

Аннотация.

В статье рассматривается актуальность развития медиаграмотности и информационных компетенций у студентов высших учебных заведений в условиях цифровизации образования. Обосновывается необходимость формирования у обучающихся навыков критической оценки информации, умения анализировать источники, распознавать недостоверный и манипулятивный медиаконтент. Раскрывается сущность понятий «медиаграмотность» и «информационная компетенция», а также их роль в профессиональной и социальной подготовке будущих специалистов. Особое внимание уделяется использованию современных педагогических технологий для формирования цифровой культуры студентов.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная компетенция, высшее образование, цифровая культура, критическое мышление, информационная безопасность.

THE NEED TO DEVELOP MEDIA LITERACY AND INFORMATION COMPETENCIES AMONG UNIVERSITY STUDENTS

Abduxolikova Nasiba Alijonovna — Associate Professor, Doctor of Science (DSc), Iskhokhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages.

Abstract

This article examines the necessity of developing media literacy and information competencies among university students in the context of the digital transformation of education. The study emphasizes the importance of equipping students with skills for critical evaluation of information, identification of reliable sources, and recognition of misleading or

manipulative media content. The concepts of media literacy and information competence are analyzed, along with their role in improving educational quality and professional readiness. The article also highlights pedagogical approaches and modern educational technologies aimed at fostering students' digital culture and responsible information behavior.

Keywords: media literacy, information competence, higher education, digital culture, critical thinking, information security.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga nazariy bilim berish bilan bir qatorda, ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish, bilimlarini hayotda qo'llay olish mahoratini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy axborot oqimi juda shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda talabalar o'z kasbiy sohalari bilan bog'liq muhim axborotni tezkor, ishonchli manbalardan topa olishi, bu axborotlarni saralash va tahlil qilib, tanqidiy yondashuv asosida qabul qila olishi talab etiladi. Shu sababli, Oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlik, axborot bilan ishlash ko'nikmalari va tanqidiy fikrlash asoslarini shakllantiruvchi fanlar hamda amaliy mashg'ulotlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki talabalar har qanday manbadagi yoki raqamli platformalardagi ma'lumotlarni sayqallangan ko'nikmalar orqali saralash, ularni ilmiy negizda qayta ishlash va maqsadli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, bu ularning kasbiy mahoratini ham yuqori darajaga ko'taradi. Shu bilan birga, jamiyatda dezinformatsiya (yolg'on xabarlar) ko'lamining ortishi mutaxassislardan media va axborot sohasida kuchli kompetensiyalar talab etilishini ko'rsatib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. G'arb ilmiy adabiyotida mediasavodxonlik tushunchasi turli ta'rif va yondashuvlar asosida sharhlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada, Kanadada hamda AQShda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha alohida ta'lim dasturlari yaratilgan. Shu jumladan, Kanadada 1980–1990-yillarda maktab ta'lim tizimida mediasavodxonlik bo'yicha fanlar joriy qilingan. Bu jarayonda ilk tadqiqotlar nega aynan o'quvchilarga axborotni tushunish, tahlil etish, tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini o'rgatish zarurligi bilan izohlanadi. G'arbda mediasavodxonlik tushunchasi faqatgina axborotni tushunish yoki qabul qilish bilan bog'lanib qolmasdan, balki axborotni yaratish, tarqatish, undan axborot iste'molchisi sifatida to'g'ri foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, mediasavodxonlik – media muhitda mustaqil pozitsiyani shakllantirish, axborot faylasufchasini takomillashtirish, o'zaro bog'liq axborot majmuini tahlil qilish, saralash, undan mustahkam yondashuv orqali foydalanish ko'nikmalarini ifodalaydi.

Mediasavodxonlik tushunchasi g'arb manbalarida rivojlanib, ilmiy atama sifatida keng tarqalgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda bu tushunchaning rasmiy ilmiy doirada kelib chiqishi nisbatan kechroq davrga to'g'ri keladi. Biroq bu yerda ham mediasavodxonlikka oid qarashlar ancha avvalroq, teleradiostansiyalarning, matbuot nashrlarining taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllangan deyish mumkin. O'zbekistonda mediasavodxonlik masalalariga qiziqish XX asr oxirlarida rivojlana boshlagan. Xususan, ilk marotaba bu yo'nalishda ilmiy maqolalar "Jurnalistika" sohasi olimlari tomonidan yozila boshlangan. Axborot madaniyati tushunchasi tarixiy jihatdan "madaniyat" tushunchasining bir bo'lagi sifatida shakllangan bo'lib, axborotlashuv jarayonlari orta borishi bilan mustaqil tushuncha sifatida taraqqiy etgan. Madaniyat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, odamlar tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy boyliklar, urf-odatlar, an'analar, axborot almashinishi kabilarni o'z ichiga oladi. Axborot madaniyati esa ayni shunday jarayonda axborotni to'g'ri boshqarish, uni qabul qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish bilan bog'liq ko'nikma hamda malakalar yig'indisidir. Axborot madaniyati tushunchasining ilk bosqichlari deyarli XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda texnika taraqqiyot bilan birgalikda ilk marotaba davlat idoralarida axborotni saqlash, boshqarish, rasmiylashtirish ancha murakkab jarayonni tashkil etgan. Shu bois iqtisodchi va menejerlar axborotni samarali boshqarish, ishlov berish usullari haqida fikr bildirganlar. Garchi bu yerda

“axborot madaniyati” termini bevosita ishlatilmagan bo‘lsa-da, axborot bilan ishlash madaniyati haqida dastlabki nazariy tushunchalar paydo bo‘lgan.

MUHOKAMA. Oliy ta’lim tizimida media va axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish, eng avvalo, ta’lim jarayonini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Talaba nafaqat umumiy axborotni eshitib yoki o‘qib, uni passiv ravishda qabul qilishi, balki mazkur axborotni tahlil qilishi, turli manbalar orasida taqqoslash ishlarini amalga oshirishi, erkin fikr bildirishi va munozaralarda qatnasha olishi lozim. Zamonaviy oliy ta’lim dasturlarida ko‘proq interaktiv uslublarga e’tibor qaratish, talaba ishtirokiga asoslangan mashg‘ulotlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda olib borish, raqamli texnologiyalar orqali bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish o‘ta muhimdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari media savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat kabi yo‘nalishlarda ham bilim hamda ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. Bu jarayon orqali u yoki bu masala haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish, axborotlarning ishonchli-ishonchsiz tomonlarini bir-biridan ajrata olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish talabalarni zamonaviy axborot jamiyatining talablariga tayyorlash, ilmiy va professional muvaffaqiyatni ta’minlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash va demokratik jamiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Ushbu kompetensiyalar talabalarni tanqidiy fikrlovchi, mas’uliyatli fuqaro va global raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantiradi. Oliy ta’lim dasturlariga ushbu ko‘nikmalarni integratsiya qilish jamiyatning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish faqatgina bir yoki ikki fan doirasida cheklanib qolmasdan, aksincha, butun ta’lim jarayonini qamrab olishi lozim. Masalan, gumanitar fanlar, aniq fanlar, iqtisodiy yo‘nalishdagi fanlar, tibbiyot, muhandislik, pedagogika kabi barcha sohalar talaba shu yo‘nalishdagi axborot manbalaridan foydalanadi, shuning uchun media va axborot bilan ishlash ko‘nikmalari barcha fakultetlar uchun ahamiyatlidir. Talabalar internetda mavjud axborotni ko‘proq mustaqil ravishda izlashga, undan foydalanib shaxsiy tahlillarini ishlab chiqishga, media platformalarda rasmiy yoki rasmiy bo‘lmagan xabarlarini farqlashga, tahrirlash nazariyalarini tushunib yetishga yondashishi zarur. Shu orqali ular mustaqil tarzda qaror qabul qilish, turli mediamateriallar orqali hosil bo‘lgan taassurotlarni tanqidiy ko‘z bilan baholash kabi sifatlariga erishadi.

Media va axborot kompetensiyalarga ega bo‘lish – bu global talab. Jahon tajribasida ushbu kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bir qancha maqsadli dasturlar va ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Jahon Banki, YUNESKO kabi tashkilotlar oliy ta’lim tizimida axborot savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha qarorlar qabul qilgan. YUNESKO media va axborot savodxonligi bo‘yicha bir nechta metodologik yo‘riqnomalar, tavsiyalar ishlab chiqdi. Bunda oliy ta’lim pedagoglarining ham axborot-savodxonlik bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirish, ularni raqamli muhitda axborot olish, tanqidiy tahlil qilish va undan norasmiy ta’lim jarayonlarida foydalanish qobiliyati bilan ta’minlash zaruriyati ta’kidlangan. Bu fikrlardan ko‘rinadiki, jahonda oliy ta’lim muassasalarining aksariyatida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda.

Media va axborot kompetensiyalari – bu bir qancha bosqichli jarayon bo‘lib, unda talabaning axborotni izlash, saralash, baholash va mutaxassis sifatida o‘z ishlab chiqarish jarayonida undan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan, talabalar jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lsa, ular turli manbalardan olingan ma’lumotlarni taqqoslash, faktlarni tekshirish, professional etika qoidalariga muvofiq axborotni tarqatish usullarini puxta egallashi talab etiladi. Muhandislik, iqtisod yoki tabiiy fanlar bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar esa ixtisosi bo‘yicha ilmiy maqolalar, texnologiyalar, ilmiy yangiliklar bilan tanishishi, rasmiy manbalardan eng so‘nggi ilmiy ishlanmalar haqida xabardor bo‘lishi, o‘sha ma’lumotlarni tanqidiy analiz qilish va ularni amalda qo‘llash yo‘llarini topa bilishi kerak. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida har bir yo‘nalish talabasi media va axborot kompetensiyalariga ehtiyoj

sezadi.

Media savodxonlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turli ta'riflarga ega. Umumiy qilib aytganda, media savodxonlik – bu axborotni izlash, analiz qilish, axborot strukturasini tushunish, mediamateriallar orqali turli g'oyalar, qadriyatlar, dunyoqarashlar targ'ibotini his qilish, tanqidiy yondashuv asosida ularni baholash hamda axborotni to'g'ri taqdim etish ko'nikmasi, malakasidir. Axborot kompetensiyasi esa axborot bilan ishlash, uni maqsadli ravishda qayta ishlash, manbalarni tanlab, tegishli xulosa chiqarish malakasini ifodalaydi. Demak, mediakompetensiya va axborot kompetensiyasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axborotni tanqidiy tushunish, tahlil qilish va undan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Media kompetensiya mafkuraviy xolislikni talab qiladi. Ya'ni, talaba axborotni qabul qilishda yoki unga munosabatda bo'lishda subyektiv yondoshuvdan ko'ra, ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda neytral pozitsiyani saqlashi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, axborotni tanqidiy baholash jarayonida jamiyatdagi turli mafkuraviy oqimlar, siyosiy yoki iqtisodiy kuchlar mediadan qanday foydalanishi, ma'lumotlar qanday izohlar bilan berilishi mumkinligini tushunib yetish lozim. Bu jarayonda talaba turli janjallar, g'arazli maqsadlar yoki manipulyatsiyaviy usullardan xabardor bo'lishi, o'z tanqidiy fikrini ishontiruvchi argumentlar asosida ifoda etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun elektron kutubxonadan foydalanish malakasini qaror toptirish maqsadida talaba avvalambor bibliografik ko'rsatkichlar bilan ishlashni, manbalarni tematik yoki predmet yo'nalishi bo'yicha topishni, ma'lumotlarning nashr etilishi vaqtini aniqlashni, murojaatni to'g'ri rasmiylashtirishni tushunib olishi kerak. Jumladan, ilmiy ish yoki maqola yozish jarayonida axborot manbasini to'g'ri ko'rsatish etika qoidalariga to'liq rioya qilish bilan bog'liq. Shuni tahlil qilish orqali ilmiy halollikni saqlash, plagiatdan chetlanish, ma'lumotlarni tahrirlashda e'tiborli bo'lish malakalari rivojlanadi.

XULOSA. Hozirda ko'p mamlakatlarda dezinformatsiya, axborot urushi, mediada turli siyosiy manipulyatsiyalar, yolg'on xabarlar keng tarqalgan sharoitda media savodxonlik eng dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo'ldi. Biroq ushbu global tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalarida media va axborot savodxonligini samarali shakllantirish orqali talabalar va kelgusi mutaxassislar nafaqat axborotni tanqidiy qabul qiladi, balki unda ishlashni, ilmiy asoslangan fikrlar bilangina chiqish qilishni, jamoatchilikka haqqoniy ma'lumot taqdim etishni o'rganadi. Bu esa keng ma'noda jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bugungi axborot jamiyati sharoitida, raqamli texnologiyalar har qadamda rivojlanib borayotgan paytda, intilishimiz kerak bo'lgan asosiy maqsadlardan biridir. Zero, axborot ishonchliligi, tezkorligi, keng qamrovliligi bilan bir vaqtda, ayrim manbalarda yolg'on yoki g'arazli maqsadlar bilan tarqatilayotgan ma'lumotlar ham oz emas. Shunday bir davrda, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi axborot bilan ishlashga oid kuchli ko'nikmalarga ega bo'lsa, bu uning kasbiy maydonida ham muvaffaqiyat qozonishiga, jamiyatda mas'uliyat bilan ishtirok etishiga, shaxsiy jittimoiy-siyosiy pozitsiyasini shakllantirishiga zamin bo'ladi.

Albatta, oliy ta'lim muassasalarida mazkur kompetensiyalarning rivojlanishi bir yo'la emas, balki uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Zero, media texnologiyalar har kuni yangilanib, rang-barang formatlar ishlab chiqilmoqda. Talaba esa bitiruv paytida olgan ko'nikmalarini kelgusi kasbiy faoliyatida uzluksiz takomillashtirib borishi lozim. Shu ma'noda, oliy ta'lim mediakompetensiyasi birinchi pog'ona bo'lsa, kasbiy muhitda esa u yanada yuksalishi kerak. Demak, oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat dolzarb, balki kelajakka yo'l olib boradigan strategik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p.
2. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013. – 96 p.
3. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 219 p.
4. Potter W.J. Media Literacy. – 7th ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2019. – 368 p.
5. Livingstone S. Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies // Communication Review. – 2004. – Vol. 7, №1. – P. 3–14.
6. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2011. – 232 p.
7. Koltay T. Media and Information Literacy in the Digital Age // Journal of Documentation. – 2011. – Vol. 67, №2. – P. 211–225.
8. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования. – М.: Институт информатизации образования РАО, 2014. – 356 с.
9. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010. – 272 с.
10. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 2006. – 256 с.
11. Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
12. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – М.: Смысл, 2010. – 448 с.